INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINING OPTIMAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI 1030
Niyazova Xilola Shavkatovna
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО ИНСТИТУТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ 1036
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи
O‘SIMLIK YOG‘LARINI TOZALASH UCHUN MAHALLIY XOMASHYOLARDAN OQARTIRUVCHI SORBENTLAR OLISH USULLARI 1041
Sayimova Dilbar Qaxramonovna
AGROKLASTERLARDA SEGMENTAR HISOBOT UCHUN HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 1047
Aliqulov G‘olib Abdimo‘minovich
O‘ZBEKISTONDA JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: BADAL MEXANIZMI, DAVLAT QO‘SHMA MOLIYALASHTIRISHI VA INVESTITSIYA BOSHQARUVI 1054
Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li
XALQARO AUDIT STANDARTLARI TALABLARIDAN KELIB CHIQIB, KORXONALARDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI 1060
Sharipova Nilufar Mansurjon qizi
QORAMOLCHILIKDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINING NAZARIYUSLUBIY ASOSLARI VA UNI MHXS (IAS 41) TALABLARIGA MUVOFIQLASHTIRISH 1065
Karimov Ikromjon Shuxrat o‘g‘li
Alikulov Abdimo‘min Ismatovich
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH ORQALI LIKVIDLIK BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI 1071
Xolmatov Azizjon Avazxon o‘g‘li
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI 1078
Zarnigor Komilova Xayriddin qizi
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI KOMPLEKS BAHOLASH 1084

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Shamsiyeva Yulduz Olimovna
QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA QURILISH ISHLARINI MOLIYALASHTIRISH VA HISOBINI YURITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 1091
Tulovov Erkinjon To‘lqin o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI 1096
Saloxov Sirojiddin Sadriddin o‘g‘li
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY NATIJALARINING SHAKLLANISH TENDENSIYALARI 1102
Absamatov Asqar Ergashovich
ELEKTR TAQSIMLASH KORXONASIDA DAROMADNI TAN OLISH ZANJIRI: HISOB SIYOSATI VA AXBOROTNI OCHIB BERISH BOSQICHLARIDAGI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI («HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI» AJ MISOLIDA) 1112
Suyunov Jaloliddin O‘ktam o‘g‘li
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЗРЕЛОСТИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ 1119
Назаров Баходир Бахтияр угли
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ЦИФРОВЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ РАБОТНИКОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 1126
ПУЛАТОВ Дилшод Акмалевич
ОЦЕНКА БЮДЖЕТНОГО РИСКА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГАРАНТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ 1134
Алиев Улугбек Маннонович
ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО МАШИНОСТРОЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ 1139
Юлдашева С. А.
XIZMATLAR SEKTORINING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI 1145
Djurayev Olimjon Narkulovich

XIZMATLAR SEKTORINING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI



Djurayev Olimjon Narkulovich
Qarshi davlat universiteti,
mustaqil tadqiqotchisi
ORCID-0009-0003-1577-6549

ANNOTATSIYA. Xizmatlar sektorida mehnat resurslaridan foydalanishning hozirgi holati, globallashuv, raqamlashtirish va texnologik transformatsiyalar sharoitida mazkur sektorning iqtisodiy o‘sish va rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xizmatlarning nomoddiy xususiyati, ularni ishlab chiqarish va iste’mol qilish jarayonlarining ko‘pincha bir vaqtda amalga oshirilishi hamda inson omilining muhim ahamiyat kasb etishi xizmatlar sektorida mehnat resurslaridan samarali foydalanish zaruratini belgilovchi omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Qashqadaryo viloyati misolida xizmatlar sektorida yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari va mehnat resurslaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi. Xususan, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, moliya, logistika va turizm yo‘nalishlarining rivojlanishi natijasida mehnat resurslariga bo‘lgan talabning sifat jihatidan o‘zgarishi, yangi kasblar va kasbiy ko‘nikmalarga ehtiyojning ortishi masalalariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va mehnat bozorini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sektori, mehnat resurslari, globallashuv, raqamlashtirish, texnologik transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, moliya, logistika, turizm, mehnat bozori.

АННОТАЦИЯ. Анализируются современное состояние использования трудовых ресурсов в секторе услуг, а также роль данного сектора в обеспечении экономического роста и развития в условиях глобализации, цифровизации и технологических преобразований. Нематериальный характер услуг, зачастую одновременное осуществление процессов их производства и потребления, а также значимость человеческого фактора рассматриваются как особенности, определяющие необходимость эффективного использования трудовых ресурсов в секторе услуг. На примере Кашкадарьинской области исследуются возможности создания новых рабочих мест и особенности использования трудовых ресурсов в сфере услуг. Особое внимание уделяется качественным изменениям спроса на трудовые ресурсы, обусловленным развитием цифровой экономики, информационных технологий, финансовой сферы, логистики и туризма, а также возрастающей потребности в новых профессиях и профессиональных навыках. Кроме того, рассматриваются приоритетные направления адаптации системы образования к требованиям рынка труда, развития профессиональных компетенций и модернизации рынка труда.

Ключевые слова: сектор услуг, трудовые ресурсы, глобализация, цифровизация, технологическая трансформация, цифровая экономика, информационные технологии, финансы, логистика, туризм, рынок труда.

ABSTRACT. The current state of labor resource utilization in the services sector and the sector’s role in economic growth and development amid globalization, digitalization, and technological transformation are analyzed. The intangible nature of services, the often simultaneous processes of service production and consumption, and the importance of the human factor are examined as distinctive characteristics that highlight the need for efficient labor resource utilization in the services sector. Using the Kashkadarya region as a case study, the analysis explores opportunities for job creation and the specific characteristics of labor resource utilization in the services sector. Particular attention is given to qualitative changes in labor demand driven by the development of the digital economy, information technology, finance, logistics, and tourism, as well as the growing need for emerging occupations and professional skills. Furthermore, the key priorities for aligning the education system with labor market requirements, developing professional competencies, and modernizing the labor market are discussed.

Keywords: services sector, labor resources, globalization, digitalization, technological transformation, digital economy, information technology, finance, logistics, tourism, labor market.

KIRISH

Xizmatlar sektorining strategik rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish zamonaviy iqtisodiyotning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va texnologik transformatsiyalar sharoitida xizmatlar sektori va inson kapitali iqtisodiy o‘sishning muhim omillari sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda[1]. Shu sababli mehnat bozori bilan xizmatlar sektori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish va ularning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mazkur masalaning dolzarbligi, avvalo, mehnat bozorida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar bilan izohlanadi. An’anaviy sanoat tarmoqlarida bandlik tarkibining o‘zgarishi va xizmatlar sektorida yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini aks ettiradi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, moliya, logistika va turizm kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi mehnat resurslariga bo‘lgan talabni sifat jihatidan o‘zgartirmoqda. Bu esa yangi kasblar va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimini moslashtirish hamda mehnat bozorini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu yo‘nalishning muhimligi iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Mehnat bozori faoliyatining samaradorligini oshirish xizmatlar sektorining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ushbu soha bevosita inson kapitaliga tayanadi. Shu bois mehnat resurslarini samarali taqsimlash, bandlikni oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va ishchi kuchining moslashuvchanligini ta’minlash strategik ahamiyat kasb etadi. Bu omillar mamlakatning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xizmatlar sektorining ahamiyati shundaki, u nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga, balki ijtimoiy masalalarni samarali hal etishga ham xizmat qiladi. Ushbu sektor keng ko‘lamda yangi ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali bandlikni kengaytirish xizmatlar sektorining asosiy afzalliklaridan biridir. Shu bilan birga, xizmatlar sifatining oshishi aholining umumiy farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonlik olimlardan Q.X.Abdurahmonov mehnat iqtisodiyoti, bandlik, mehnat bozori va raqamli iqtisodiyot sharoitidagi mehnat munosabatlarini[2], Sh.R.Xolmo‘minov va I.A.Bakiyeva mehnat resurslari, mehnat unumdorligi va mehnatni tashkil etish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uslubiyatini[3], G.K.Abdurahmanova inson resurslarini boshqarish masalalarini[4], Q.X.Abdurahmanov va S.B.G‘oyipnazarov esa xodimlarni tanlash va jalb qilish (rekrutment) jihatlarini[5] tadqiq etgan. Shu bilan birga, hududiy darajada xizmatlar sektori va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ayniqsa, Qashqadaryo viloyati misolida yanada chuqurroq o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bilishning analiz va sintez, umumlashtirish, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan, shuningdek, tarixiylik, o‘zaro aloqadorlik, tizimlilik tamoyillaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global va milliy iqtisodiy tizimlarning dinamik transformatsiyasi hududiy rivojlanishning an’anaviy modellarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Industrial-agrar paradigmadan bilim va xizmatlar iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mehnat bozorini modernizatsiya qilish va xizmatlar sektorini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Keng hududga, boy tabiiy resurslarga, rivojlangan sanoatga va muhim demografik salohiyatga ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyati ushbu strategik tashabbuslarni amalga oshirishda muhim hududlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tarixan mintaqa iqtisodiyoti qazib olish sanoati va qishloq xo‘jaligiga tayangan bo‘lsa, zamonaviy iqtisodiy sharoit yangi imkoniyatlarga moslashish va rivojlanish yo‘nalishlarini kengaytirishni taqozo etmoqda. Bunda xizmatlar sohasi va sifatli inson kapitali uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning muhim omillariga aylanmoqda.

Viloyatning 2017–2025-yillardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari sezilarli o‘zgarishlarni aks ettiradi.

1 World Bank. O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sish istiqbollari: hisobot. – Washington, DC: World Bank, 2024.
2 Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot: darslik. 3-nashr. – Toshkent: O‘zR FA «Fan» nashriyoti, 2019. – 544 b.
3 Xolmo‘minov Sh.R., Bakiyeva I.A. Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili: darslik. – Toshkent: «Iqtisodiyot», 2019.
4 Abdurahmanova G.K. Inson resurslarini boshqarish: darslik. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2021. – 691 b.
5 Abdurahmanov Q.X., G‘oyipnazarov S.B. Rekrutment: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2021. – 304 b.

Jumladan, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (YaHM) 3,2 baravarga oshib, 26,9 million so‘mga yetdi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi 4,9 foizgacha, kambag‘allik darajasi esa 6,5 foizgacha pasaydi[6]. Ushbu natijalar kichik biznesni rag‘batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida mehnat resurslarini qayta taqsimlash va xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish jarayonlari bilan bog‘liq.

Tarkibiy transformatsiya ko‘lamini baholash uchun joriy o‘sish sur’atlari va istiqboldagi maqsadli ko‘rsatkichlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkichlar xizmatlarga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tish jarayonining asosiy tendensiyalarini aks ettiradi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va 2026-yil uchun prognoz parametrlari[7]

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiyot sektorlari	Haqiqiy o‘sish sur’atlari (2025-yil yakunlari bo‘yicha)	2026-yil uchun maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari
Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	6,8%	8,2%
Xizmatlar sektori	13,6%	15,9%
Sanoat sektori	7,2%	8,6%
Qurilish sektori	Ko‘rsatilmagan	13,2%
Qishloq xo‘jaligi	4,3%	5,8%
Jalb qilinadigan investitsiyalarning umumiy hajmi	Ko‘rsatilmagan	3,5 mlrd AQSh dollari
Eksport mahsulotlari hajmi	Ko‘rsatilmagan	727 mln AQSh dollari

Mazkur jadval Qashqadaryo viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha joriy holat va 2026-yil uchun strategik rivojlanish yo‘nalishlarini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar hudud iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasi va ustuvor tarmoqlarini aniqlash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va aholi bandligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda xizmatlar hajmi 2018-yildagi 19 milliard AQSh dollaridan 2024-yilga kelib 65 milliard AQSh dollarigacha oshib, qariyb 3,5 baravarlik o‘sishni qayd etdi. Davlatning strategik rejalarida 2025-yilda ushbu ko‘rsatkichni yana 15 foizga oshirish, xizmatlar hajmini 82 milliard AQSh dollariga, xizmatlar eksportini esa 8,5 milliard AQSh dollariga yetkazish nazarda tutilgan. So‘nggi yillarda tarmoq qo‘shimcha 1,5 million kishini barqaror daromad manbalari bilan ta’minladi. 2025-yil uchun belgilangan maqsad esa sohada 2,5 million kishining daromad olish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat edi[8].

Ushbu ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, Qashqadaryo kabi hududlarda xizmatlar sektorini rivojlantirishning institutsional imkoniyatlarini yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o‘sish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda xususiy sektorning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan diagnostik tadqiqotlarda O‘zbekiston bank sektorida davlat ishtirokining yuqori ulushi qayd etilgan. 2020-yil oxiriga kelib, 13 ta davlat tijorat banki (SOCB) bank sektori umumiy aktivlarining 85 foizini boshqargan va umumiy kreditlash hajmining 89 foizini ta’minlagan[9]. Davlat korxonalarini maqsadli kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bir qatorda, xususiy sektorning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik va o‘rta biznes (KO‘B) korxonalarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasining global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi raqamlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi doirasida hududlarni, jumladan, Qashqadaryo viloyatini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[10]. Raqamlashtirish raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Davlat siyosatining maqsadli ko‘rsatkichlaridan biri 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot tarkibida kreativ iqtisodiyot ulushini 5 foizga

6 Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali, 11.03.2026. – URL: https://gov.uz/oz/news/view/141152.

7 O‘sha manba.

8 O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasi 2018-yilga nisbatan 3,5 barobar o‘sdi // spot.uz, 07.02.2025. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/02/07/service-sector/.

9 World Bank. Uzbekistan Financial Sector Reform Project (P173619): Concept Environmental and Social Review Summary. – Washington, DC: World Bank, 2020. – P. 2.

10 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5030957.

yetkazishdan iborat[11]. Ushbu jarayonda kreativ iqtisodiyot IT-xizmatlari, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, media, dizayn va biznes jarayonlari autsorsingi (BPO) bilan chambarchas bog'liq.

IT-sektorining jadal rivojlanishi IT Park O'zbekiston statistik ma'lumotlarida ham o'z aksini topgan. 2025-yilning kuzgi davrida yangi rezidentlar sonining sezilarli o'sishi kuzatildi. Jumladan, 470 ta kompaniya rezident maqomini oldi, ulardan 212 tasi hududlarda ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu raqamli iqtisodiyotning hududiy rivojlanish imkoniyatlari kengayayotganini ko'rsatadi. Yangi rezidentlarning salmoqli qismi, ya'ni 267 ta kompaniya eksportga yo'naltirilgan bo'lib, ulardan 158 tasi AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarning xorijiy kapitali ishtirokidagi kompaniyalardir. 2026-yil oxiriga qadar ushbu kompaniyalar tomonidan 70 million AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi eksport xizmatlari ko'rsatilishi kutilmoqda[12].

Turizm tarmog'i Qashqadaryo viloyati xizmatlar sohasining istiqbolli segmentlaridan biri bo'lib, mintaqa iqtisodiyotida ko'paytiruvchi iqtisodiy samara yaratish salohiyatiga ega. Noyob madaniy meros obyektlari, tog' tizmalari va qulay iqlim sharoitlarining mavjudligi safari-turizm, ekoturizm va ziyorat turizmini rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Xizmatlar sektorining faoliyatini mintaqaning an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida yashil iqtisodiyotga o'tishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu 2025-yilning «Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili» deb e'lon qilinishi bilan ham o'z ifodasini topdi. Ushbu yil doirasidagi davlat dasturida «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish hamda iqlim o'zgarishiga moslashish loyihalarini barqaror moliyalashtirish vazifalari belgilandi[13]. Bu esa ekologik audit, energiya samaradorligi bo'yicha konsalting va ekoturizm kabi yangi xizmatlarga bo'lgan talabning ortishiga xizmat qiladi.

Agrobiznesni rivojlantirish eksportni ko'paytirish, bandlikni kengaytirish va mintaqaning mutanosib rivojlanishiga ko'maklashish uchun katta salohiyatga ega. O'zbekiston agrar sektorida faol joriy etilayotgan klasterli yondashuv alohida hududlarning ham, butun mamlakatning ham raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Xomashyo eksportidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mamlakat ichida chuqur qayta ishlashga o'tish logistika, sertifikatlashtirish va marketing sohasidagi yuqori texnologiyali xizmatlarga talabni yuzaga keltiradi. Meva-sabzavotchilik klasterlari fermerlar va iste'molchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatish, shuningdek, yangi mahalliy mahsulotlar konsepsiyasini ilgari surish orqali mahalliy bozorni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu jarayonlarning rekreatsiya sektori bilan integratsiyalashuvi mintaqa uchun yangi yo'nalish — agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Qashqadaryoning qishloq hududlari masofaviy mehnat faoliyatini mahalliy madaniyat va qishloq xo'jaligi bilan yaqindan tanishish imkoniyatlari bilan uyg'unlashtiradigan «raqamli ko'chmanchilar» (digital nomads)ni jalb qilish salohiyatiga ega. Agroturizm va raqamli mobillik sohasidagi istiqbolli tadqiqotlar hamda investitsiyalar mintaqaning turistik iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilishga yordam beradi hamda ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan kompleks tahlillar Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Makroiqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini qazib olish sanoati va an'anaviy qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda, yuqori intellektual xizmatlar sektori, kreativ iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish hisobiga diversifikatsiya qilish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda aholi bandligini kengaytirishning muhim omillaridan biridir. Klasterli yondashuvga tayanish, global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv va yashil texnologiyalarni joriy etish mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

O'rganilgan materiallar asosida xizmatlar sektorini rivojlantirish siyosatini maqbullashtirish bo'yicha quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ta'lim standartlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish (TVET). Kasb-hunarga tayyorlash dasturlarini zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususiy biznes vakillarini o'z ichiga olgan tarmoq malaka kengashlari faoliyatini institutsional jihatdan rivojlantirish o'quv rejalarini yangilash imkonini beradi. Mehnat bozoridagi faol dasturlarni (ALMP) qo'llash ko'lamini kengaytirish, xususan, ish tajribasiga ega bo'lmagan yosh mutaxassislarni ishga qabul qilishda ish beruvchilarni rag'batlantirish

11 Prezidentning kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha PQ-64-son qarori qabul qilindi // spot.uz, 18.02.2026. – URL: https://www.spot.uz/oz/2026/02/18/creative-park/.

12 2025-yil kuzida 267 ta eksport qiluvchi kompaniya IT Park Uzbekistan rezidenti maqomini oldi // IT Park Uzbekistan, 2025. – URL: https://www.it-park.uz.

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "«O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni // gov.uz, 08.02.2025. – URL: https://gov.uz/oz/dustlik/news/view/35434.

maqsadida shogirdlik dasturlarini subsidiyalash maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tiborni kasbiy ko'nikmalar bilan bir qatorda, raqamli savodxonlik va «yumshoq» muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratish zarur.

Moliya bozorida raqobat muhitini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Xizmatlar sohasida KO'B subyektlarini, jumladan, mehmonxonalar, logistika kompaniyalari va IT-startaplarni jadal rivojlantirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Fiskal va kadastr ma'lumotlar bazalarini bank tizimlari bilan integratsiyalashni venchur moliyalashtirish, kraudfanding va mikrokredit liniyalari kabi muqobil moliyaviy vositalarni rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda kredit risklarini hisobga olgan holda garov ta'minotiga qo'yiladigan talablarni maqbullashtirish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini biznes subyektlariga uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha tashabbuslarni viloyatning barcha tumanlarida kengaytirish lozim.

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash. Bandlik strategiyasini «Ayollar daftari» dasturi doirasidagi chora-tadbirlar bilan bir qatorda, qo'shimcha iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Haq to'lanmaydigan uy mehnati yukini kamaytirish uchun qulay va foydalanish imkoniyati keng bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Moslashuvchan mehnat munosabatlarini rivojlantirish ayollarga onalik vazifalarini xizmatlar sektori va kreativ industriyadagi kasbiy faoliyat bilan samaraliroq uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Mehnat migratsiyasini texnologik transfer vositasi sifatida boshqarish. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Janubiy Koreyaga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini inson kapitaliga investitsiya kiritish va xalqaro kasbiy tajribani o'zlashtirish mexanizmi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish dasturlarini takomillashtirish, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun mavjud moliyaviy va soliq mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu ularning xorijda orttirgan tajribasi va yangi texnologik kompetensiyalaridan mahalliy iqtisodiyotda samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Turizm klasterlarini kengaytirish va mavsumiylik ta'sirini kamaytirish. Safari, agro va ziyorat turizmini rivojlantirishda alohida investitsiya loyihalari bilan bir qatorda, romb modeliga (Diamond model)[14] asoslangan tizimli rejalashtirish yondashuvini qo'llash maqsadga muvofiq. Turizmni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini, birinchi navbatda, infratuzilmani takomillashtirishga, jumladan, ekologik transport, uzluksiz energiya va suv ta'minotini rivojlantirishga yo'naltirish, shuningdek, «tungi iqtisodiyot»ni rivojlantirish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Global mehmonxona brendlarini jalb qilish va muzeylarda SMART-yechimlarni joriy etish mehmondo'stlik standartlarini takomillashtirish hamda global turizm bozoriga integratsiyalashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5030957.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni. – 2025-yil fevral. – URL: https://gov.uz/oz/dustlik/news/view/35434.
3. Abdurahmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot: darslik. – 3-nashr. – Toshkent: O'zR FA «Fan» nashriyoti, 2019. – 544 b.
4. Abdurahmanov Q.X., G'oyipnazarov S.B. Rekrutment: o'quv qo'llanma. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2021. – 304 b.
5. Abdurahmanova G.K. Inson resurslarini boshqarish: darslik. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2021. – 691 b.
6. Djurayev O. Mehnatni tashkil etishga doir nazariy qarashlar tahlili // Interpretation and Researches. – 2023. – Vol. 2, No. 1.
7. Juraev O.N. Theoretical Fundamentals of Location of Production Forces // Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – P. 423–431.
8. Жўраев О.Н. Ишлаб чиқариш кучларини жойлаштиришнинг назарий асослари // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – B. 581–590.
9. Narkulovich D.O. Cases as Methods of Preparing Students for the Rational Organization of Work // Intent Research Scientific Journal. – 2023. – Vol. 2, No. 6. – P. 187–192.
10. Narkulovich D.O. Ways of Preparing Students for Rational Organization of Work in the Process of Pedagogical Education // Conferencea. – 2023. – P. 115–118.

14 Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.

11. Narkulovich J.O., Sherzod o‘g‘li M.U. Korxonalarda mehnat jarayonini rivojlantirish istiqbollari // Miasto Przyszłości. – 2024. – Vol. 54. – P. 1405–1408.
12. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
13. Xolmo‘minov Sh.R., Bakiyeva I.A. Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili: darslik. – Toshkent: «Iqtisodiyot», 2019.
14. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Reform Project (P173619): Concept Environmental and Social Review Summary. – Washington, DC: World Bank, 2020.
15. World Bank. O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sish istiqbollari: hisobot. – Washington, DC: World Bank, 2024.
16. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasi 2018-yilga nisbatan 3,5 baravar o‘sdi // Spot.uz. – 2025-yil 7-fevral.
17. Prezidentning kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha PQ-64-son qarori qabul qilindi // Spot.uz. – 2026-yil 18-fevral.
18. Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi // gov.uz. – 2026-yil 11-mart. – URL: https://gov.uz/oz/news/view/141152.
19. 2025-yil kuzida 267 ta eksport qiluvchi kompaniya IT Park Uzbekistan rezidenti maqomini oldi // IT Park Uzbekistan. – 2025. – URL: https://www.it-park.uz.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz